

O'ZBEKISTONDA BUDJET XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH VA IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ismatov Murod Yakubjanovich

Jizzax viloyat Gaznachilik xizmati boshqarmasi boshlig'i.

E-mail: @murodismatov@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21946473>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda budjet xarajatlarini optimallashtirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda davlat budjeti xarajatlarining tarkibi va dinamikasi, ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri hamda budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Budjet xarajatlarini natijadorlik asosida rejalashtirish, samarasiz xarajatlarni qisqartirish, investitsion xarajatlar samaradorligini oshirish va budjet jarayonlarini raqamlashtirishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, budjet xarajatlarini optimallashtirishda xarajatlarni mexanik qisqartirishdan ko'ra, mavjud moliyaviy resurslarni yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samara beruvchi yo'nalishlarga qayta taqsimlash muhimligi aniqlangan. Shuningdek, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, budjet xarajatlari, xarajatlarni optimallashtirish, iqtisodiy o'sish, davlat moliyasi, budjet siyosati, investitsion xarajatlar, fiskal barqarorlik, budjet samaradorligi.

УЛУЧШЕНИЕ МЕХАНИЗМОВ ОПТИМИЗАЦИИ БЮДЖЕТНЫХ РАСХОДОВ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ

Исмамов Мурод Якубжанович

Начальник отдела казначейской службы Джизакской области.

Электрон почта: @murodismatov@gmail.com

Аннотация. В статье исследуются механизмы оптимизации бюджетных расходов и обеспечения экономического роста в Узбекистане. В ходе исследования проанализированы структура и динамика государственных бюджетных расходов, их влияние на экономический рост, а также эффективность использования бюджетных средств. Обоснована значимость планирования бюджетных расходов на основе результативности, сокращения неэффективных расходов, повышения эффективности инвестиционных расходов и цифровизации бюджетного процесса. По результатам исследования установлено, что при оптимизации бюджетных расходов основное внимание следует уделять не механическому сокращению расходов, а перераспределению имеющихся финансовых ресурсов в пользу направлений, обеспечивающих более высокий экономический и социальный эффект. Разработаны научно-практические предложения по повышению эффективности использования бюджетных средств и стимулированию экономического роста.

Ключевые слова: государственный бюджет, бюджетные расходы, оптимизация расходов, экономический рост, государственные финансы, бюджетная политика, инвестиционные расходы, фискальная устойчивость, эффективность бюджета.

IMPROVEMENT OF MECHANISMS FOR OPTIMIZING BUDGET EXPENDITURES AND ENSURING ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN

Ismatov Murod Yakubjanovich

Head of the Department of the Treasury Service of the Jizzakh region.

E-mail: @murodismatov@gmail.com

Abstract. This article examines mechanisms for optimizing public budget expenditures and ensuring economic growth in Uzbekistan. The study analyzes the structure and dynamics of government budget expenditures, their impact on economic growth, and the efficiency of public financial resource utilization. The importance of performance-based budget planning, reducing inefficient expenditures, improving the efficiency of investment spending, and digitalizing the budget process is substantiated. The findings indicate that budget expenditure optimization should not be limited to mechanical expenditure reductions; rather, available financial resources should be reallocated toward areas that generate higher economic and social returns. The study also develops scientific and practical recommendations aimed at improving the efficiency of budget resource utilization and stimulating sustainable economic growth.

Keywords: state budget, budget expenditures, expenditure optimization, economic growth, public finance, budget policy, investment expenditures, fiscal sustainability, budget efficiency.

KIRISH

Bugungi kunda davlat moliyasini samarali boshqarish, budget mablag'laridan oqilona foydalanish va xarajatlarning natijadorligini oshirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiyotda davlat ishtirokining maqbul darajasini shakllantirish, cheklangan budget resurslarini ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish hamda har bir sarflangan mablag'ning ijtimoiy-iqtisodiy natijasini baholash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda yuqori sur'atlarda o'sib bormoqda: Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda mamlakat real YAIMi 7,7 foizga oshgan.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi sharoitida davlat budjeti xarajatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Budget xarajatlarining tarkibini optimallashtirish, samarasiz va takrorlanuvchi xarajatlarni qisqartirish, davlat dasturlarini natijadorlik asosida moliyalashtirish hamda budget mablag'laridan foydalanishda shaffoflikni kuchaytirish davlat moliyasini boshqarishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. 2024-yilda O'zbekistonda budget xarajatlari YAIMga nisbatan 29,2 foizni tashkil etgan bo'lib, 2023-yildagi 31,4 foizlik ko'rsatkichga nisbatan pasaygan. Jahon banki ushbu o'zgarishni, jumladan, energiya subsidiyalarining qisqarishi bilan bog'laydi.

Budget xarajatlarini optimallashtirish faqat xarajatlar hajmini qisqartirishni anglatmaydi. Aksincha, uning asosiy mazmuni mavjud moliyaviy resurslarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yuqori samara beradigan yo'nalishlarga qayta taqsimlashdan iborat. Xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma, ijtimoiy himoya, inson kapitalini rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarga yo'naltirilgan xarajatlarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash muhimdir. Jahon banki O'zbekistonning uzoq muddatli barqaror o'sishi uchun unumdorlikni oshirish, xususiyl sektorini rivojlantirish va davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini maqbullashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, budget xarajatlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan tadqiq etish, xarajatlarning YAIM o'sishiga ta'sirini aniqlash hamda budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda budget xarajatlarining dinamikasi va tarkibiy tuzilishi tahlil qilinib, ularning iqtisodiy o'sishga ta'sir

etuvchi asosiy omillari aniqlanadi hamda budjet siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirish va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash masalasi zamonaviy davlat moliyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda budjet xarajatlarining nafaqat hajmi, balki ularning tarkibi, samaradorligi, maqsadliligi va iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissassi asosiy mezon sifatida qaraladi.

Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda davlat xarajatlari samaradorligini oshirish fiskal barqarorlikni ta'minlash bilan bir qatorda, ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilma kabi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim sohalarga resurslarni ustuvor yo'naltirish imkonini berishi ta'kidlangan [1]. Mazkur yondashuv budjet xarajatlarini oddiy qisqartirish emas, balki mavjud resurslarni yuqori iqtisodiy va ijtimoiy natija beruvchi yo'nalishlarga qayta taqsimlash zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston misolida Jahon bankining davlat xarajatlari va moliyaviy boshqaruv samaradorligiga bag'ishlangan yangi PEFA baholashida budjet jarayonlarining samaradorligi, davlat moliyasini boshqarish, moliyaviy hisobotlarning sifati va xarajatlar ustidan nazorat mexanizmlari tahlil qilingan [2]. Tadqiqot natijalari budjet resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda moliyaviy boshqaruv tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish muhimligini ko'rsatadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi O'zbekiston bo'yicha 2024-yilgi tadqiqotida fiskal konsolidatsiyaning qisqa va o'rta muddatli iqtisodiy o'sishga ta'sir kanallarini o'rgangan. Unda fiskal siyosatni iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sirni minimallashtiradigan tarzda amalga oshirish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va ijtimoiy xarajatlarni aniq maqsadli yo'naltirish muhimligi qayd etilgan [3].

IMFning O'zbekiston bo'yicha 2024-yilgi Article IV hisobotida davlat xarajatlari samaradorligini oshirish uchun ish haqi fondini maqbullashtirish, davlat korxonalariga ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlashni bosqichma-bosqich qisqartirish, ijtimoiy himoya dasturlarini aniqroq yo'naltirish va ma'muriy xarajatlarni kamaytirish zarurligi ko'rsatib o'tilgan [4]. Bu tavsiyalar budjet xarajatlarini optimallashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida xarajatlarni mexanik qisqartirishdan ko'ra, ularning tarkibiy samaradorligini oshirishga urg'u beradi.

IMFning "Selected Issues" tadqiqotida O'zbekiston sharoitida davlat investitsiyalarini boshqarish samaradorligiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, davlat investitsiya loyihalarini yagona baholash va tanlash tizimini joriy etish, loyihalarining yagona portfelini shakllantirish hamda ularning monitoring va baholash mexanizmlarini kuchaytirish davlat investitsiyalari samaradorligini oshirishning muhim shartlari sifatida ko'rsatilgan [5].

Jahon bankining O'zbekiston iqtisodiyotiga oid so'nggi ma'lumotlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lib, 2025-yilda real YAIM 7,7 foizga oshgani qayd etilgan. Shu bilan birga, barqaror va ish o'rinlari yaratishga yo'naltirilgan iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini maqbullashtirish, xususi sektorni rivojlantirish va davlat resurslaridan samarali foydalanish muhimligi ta'kidlangan [6].

Jahon bankining budjet ijrosi bo'yicha ma'lumotlar bazasi davlat xarajatlarining tasdiqlangan budjetga nisbatan bajarilish darajasini baholash imkonini beradi. Mazkur ko'rsatkich budjet rejalashtirish sifati va amaldagi xarajatlarning tasdiqlangan parametrlar bilan muvofiqligini aniqlashda muhim indikatorlardan biri hisoblanadi [7].

Shuningdek, O'zbekistonda davlat moliyasini isloh qilish bo'yicha Jahon banki tavsiyalarida budjetdan tashqari xarajatlarni budjet tizimiga integratsiya qilish, budjetni rejalashtirish jarayonini takomillashtirish, davlat sektorida buxgalteriya hisobi va ichki nazoratni kuchaytirish hamda davlat investitsiyalarini boshqarish sifatini oshirish masalalari ilgari surilgan [8]. Ushbu yondashuvlar budjet mablag'larining shaffofligi, hisobdorligi va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

2026-yilgi IMF ma'lumotlari ham O'zbekiston fiskal siyosatida xarajatlarni samarali boshqarish masalasi dolzarbligicha qolayotganini ko'rsatadi. 2025-yilda konsolidatsiyalashgan budget xarajatlari YAIMning 29,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil uchun 29,7 foiz darajasida prognoz qilingan. Shu bilan birga, fiskal taqchillikni bosqichma-bosqich kamaytirish va davlat qarzi barqarorligini saqlash iqtisodiy siyosatning muhim vazifalaridan biri sifatida qayd etilgan [9].

Umuman olganda, o'rganilgan adabiyotlar budget xarajatlarini optimallashtirish iqtisodiy o'sishni ta'minlashda uchta asosiy yo'nalishni qamrab olishini ko'rsatadi: **birinchidan**, xarajatlarning ustuvor va samarali sohalarga yo'naltirilishi; **ikkinchidan**, davlat investitsiyalari va ijtimoiy xarajatlarning natijadorligini oshirish; **uchinchidan**, budget jarayonlarining shaffofligi, raqamlashtirilishi va moliyaviy nazoratini kuchaytirish. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida budget xarajatlarning alohida turlari va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini miqdoriy jihatdan baholash, xarajatlar tarkibining optimal nisbatlarini aniqlash hamda xarajatlarning multiplikativ ta'sirini tadqiq etish masalalari qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda budget xarajatlarini optimallashtirish va ularning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi rolini baholash uchun **tizimli yondashuv, statistik tahlil, taqqoslash, dinamik tahlil va ekonometrik usullardan** foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini davlat moliyasini boshqarish, budget xarajatlarning samaradorligi hamda fiskal siyosatning iqtisodiy o'sishga ta'siri bo'yicha ilmiy-nazariy yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining davlat budgeti xarajatlari, yalpi ichki mahsulot hajmi, budget taqchilligi, davlat investitsiyalari, ijtimoiy xarajatlar va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamikasi o'rganildi. Ko'rsatkichlarning yillar bo'yicha o'zgarishi **dinamik qatorlar tahlili** orqali baholanib, budget xarajatlarning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi aniqlandi.

Budget xarajatlarning tarkibiy samaradorligini baholashda **strukturaviy tahlil** usulidan foydalanildi. Bunda davlat budgeti xarajatlarning ijtimoiy soha, iqtisodiyot, infratuzilma, davlat boshqaruvi va boshqa yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanishi o'rganildi. Shuningdek, xarajatlarning umumiy budgetdagi ulushi va ularning vaqt davomida o'zgarish tendensiyalari aniqlanadi.

Tadqiqotda budget xarajatlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida **korrelyatsion-regression tahlil**dan foydalanish nazarda tutiladi. Bunda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati natijaviy ko'rsatkich sifatida, davlat budgeti xarajatlari, davlat investitsiyalari va ijtimoiy xarajatlar esa asosiy omillar sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv budget xarajatlarning iqtisodiy o'sishga ta'sir darajasini miqdoriy jihatdan baholash imkonini beradi.

Shuningdek, budget xarajatlarning samaradorligini aniqlashda **xarajatlarning natijadorlik ko'rsatkichlari** asos qilib olindi. Bunda budget mablag'larining hajmi bilan bir qatorda, ushbu mablag'lar hisobidan erishilgan iqtisodiy va ijtimoiy natijalar ham hisobga olinadi. Tadqiqot davomida budget xarajatlari optimallashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida samarasiz xarajatlarni qisqartirish, ustuvor yo'nalishlarni moliyalashtirish, davlat investitsiyalarining qaytimi va budget mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish masalalariga e'tibor qaratildi.

Tadqiqotning axborot bazasini **O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Milliy statistika qo'mitasi, Markaziy bank, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasining** rasmiy statistik ma'lumotlari hamda tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Olingan ma'lumotlar asosida budget xarajatlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri baholanib, O'zbekistonda budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda davlat budgeti xarajatlari optimallashtirish masalasi iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatda fiskal siyosatni takomillashtirish, budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda

xarajatlarning natijadorligini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda O'zbekistonning konsolidatsiyalashgan budjeti xarajatlari 433,7 trln so'mni tashkil etib, bu YAIMning 29,8 foiziga teng bo'lgan. Shu bilan birga, budget daromadlari YAIMning 26,5 foizini tashkil etgan va fiskal taqchillik 3,3 foiz darajasida shakllangan. Ushbu ko'rsatkichlar davlat moliyasining barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda, budget resurslaridan yanada samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

2024-yilda davlat budjeti xarajatlari tarkibi tahlil qilinganda, asosiy mablag'lar ijtimoiy soha va aholini qo'llab-quvvatlash yo'nalishlariga yo'naltirilgani kuzatiladi. Jumladan, ijtimoiy xarajatlar 152,3 trln so'mni tashkil etib, umumiy budget xarajatlarining qariyb 49 foiziga teng bo'lgan. Iqtisodiyot tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash xarajatlari 38,4 trln so'mni, markazlashtirilgan investitsiya va hududiy infratuzilma loyihalariga ajratilgan mablag'lar esa 28,5 trln so'mni tashkil etgan.

Budget xarajatlari tarkibining tahlili ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlar ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Biroq uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun investitsion va infratuzilmaviy xarajatlar ulushini maqbullashtirish muhim hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, transport, energetika, raqamli infratuzilma, ta'lim va innovatsiyalarni moliyalashtirish iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston YAIM hajmi 2023-yildagi 1261,8 trln so'mdan 2024-yilda 1535,4 trln so'mga yetgan, ya'ni nominal o'sish 21,7 foizni tashkil etgan. Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, real iqtisodiy o'sish sur'ati 2024-yilda 6,0 foiz atrofida shakllangan. Bu davlat xarajatlarining iqtisodiy faollikni rag'batlantirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, budget xarajatlarini optimallashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari aniqlandi:

- budget mablag'larini natijadorlik tamoyili asosida taqsimlash;
- samarasiz va takrorlanuvchi xarajatlarni qisqartirish;
- investitsion va infratuzilmaviy xarajatlar ulushini oshirish;
- davlat dasturlarini monitoring qilish va baholash tizimini takomillashtirish;
- budget jarayonlarini raqamlashtirish va ochiqlik darajasini oshirish.

Shuningdek, tahlillar budget xarajatlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri nafaqat xarajatlar hajmiga, balki ularning tarkibi va samaradorligiga ham bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Inson kapitali, innovatsiyalar, transport va ishlab chiqarish infratuzilmasiga yo'naltirilgan xarajatlar yuqori multiplikativ samara berib, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Natijada, O'zbekistonda budget xarajatlarini optimallashtirish davlat moliyasining barqarorligini ta'minlash, fiskal xatarlarni kamaytirish va iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichiga o'tish uchun zarur shartlardan biri ekanligi aniqlandi. Mazkur yo'nalishda natijadorlikka asoslangan budgetlashtirish tizimini keng joriy etish hamda investitsion xarajatlar samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari O'zbekistonda budget xarajatlarini optimallashtirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish va fiskal barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti ekanligini ko'rsatdi. Budget xarajatlarining yuqori ulushi ijtimoiy sohani moliyalashtirishga yo'naltirilayotgan bo'lsa-da, iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun xarajatlarning tarkibiy samaradorligini oshirish, investitsion va infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish natijadorligini kuchaytirish zarur.

Tadqiqot davomida budget xarajatlarini optimallashtirish faqat xarajatlar hajmini kamaytirish bilan bog'liq emasligi aniqlandi. Aksincha, mavjud moliyaviy resurslarni yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samara beradigan yo'nalishlarga qayta taqsimlash, xarajatlarning natijadorligini baholash va budget mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish optimallashtirishning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Tahlillar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. **Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni takomillashtirish.** Budjet mablag‘larini ajratishda xarajatlarning hajmi bilan bir qatorda, ularning yakuniy iqtisodiy va ijtimoiy natijalarini baholash tizimini kuchaytirish lozim.

2. **Samarasiz xarajatlarni aniqlash va qisqartirish.** Davlat tashkilotlari xarajatlarini muntazam ravishda funksional va iqtisodiy jihatdan tahlil qilib, takrorlanuvchi hamda yetarli natija bermayotgan xarajatlarni optimallashtirish maqsadga muvofiq.

3. **Investitsion xarajatlar samaradorligini oshirish.** Budjet hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini tanlashda ularning iqtisodiy samaradorligi, yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyati va hududiy rivojlanishga ta‘sirini kompleks baholash zarur.

4. **Budjet jarayonlarini raqamlashtirishni kengaytirish.** Budjet mablag‘larining shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishini yagona raqamli platforma orqali monitoring qilish mablag‘lardan maqsadli foydalanish va moliyaviy intizomni kuchaytirishga xizmat qiladi.

5. **Budjet xarajatlarning iqtisodiy o‘lishga ta‘sirini muntazam baholab borish.** Xarajatlarning YAIM, bandlik, investitsiyalar va mehnat unumdorligiga ta‘sirini ekonometrik modellar asosida baholash budjet siyosatining samarali yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

6. **Ijtimoiy xarajatlarning manzilliligini kuchaytirish.** Ijtimoiy yordam va subsidiyalarni aholining haqiqiy ehtiyojmand qatlamlariga yo‘naltirish orqali budjet mablag‘larining ijtimoiy samaradorligini oshirish mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan kengroq foydalanish. Infratuzilma va ayrim ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishda xususiy kapitalni jalb qilish davlat budjetiga tushadigan yuklamani kamaytirish va investitsion imkoniyatlarni kengaytirishga yordam beradi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda budjet xarajatlarni optimallashtirishning samarali modeli “xarajatlarni kamaytirish” emas, balki “har bir budjet so‘mi uchun maksimal iqtisodiy va ijtimoiy natijaga erishish” tamoyiliga asoslanishi lozim. Mazkur yondashuv davlat moliyasining barqarorligini mustahkamlash bilan birga, investitsion faollikni oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va uzoq muddatli iqtisodiy o‘lish uchun mustahkam moliyaviy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **World Bank.** (2024). Public Finance Reviews: Fiscal Policy, Efficiency and Sustainable Growth. Washington, DC: World Bank.
2. **World Bank.** (2025). Uzbekistan – Public Expenditure and Financial Accountability (PEFA) Performance Assessment Report. Washington, DC: World Bank Group.
3. **International Monetary Fund.** (2024). Republic of Uzbekistan: Selected Issues. IMF Staff Country Reports, No. 2024/211. Washington, DC.
4. **International Monetary Fund.** (2024). Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation—Press Release and Staff Report. IMF Staff Country Reports, No. 2024/210. Washington, DC.
5. **International Monetary Fund.** (2024). Republic of Uzbekistan: Selected Issues — Fiscal Consolidation and Growth. Washington, DC.
6. **World Bank.** (2026). Uzbekistan: Overview and Economic Update. Washington, DC: World Bank.
7. **World Bank.** (2025). Primary Government Expenditures as a Proportion of Original Approved Budget: Uzbekistan. World Development Indicators/PEFA.
8. **World Bank.** (2020). Improving Uzbekistan’s Public Finances: More Transparency, Better Budgeting, and Lower Taxes. Washington, DC: World Bank.
9. **International Monetary Fund.** (2026). IMF Executive Board Concludes 2026 Article IV Consultation with the Republic of Uzbekistan. Washington, DC.